“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=362

2026-yil
4-son
aprel
ISSN 3093-8546



Ijtimoiy-iqtisodiy sabablar va huquqiy omillar: talon-toroj qilish jinoyatlari konseptual tahlili

O‘tkir Bahodirov,
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi Kriminalistika va sud ekspertizalari kafedrasi
katta o‘qituvchisi
e-mail: utkir.bakhodirov@mail.ru

Аннотация. Ushbu maqolada o‘zlashtirish yoki rastrata yo‘li bilan talon-toroj qilish jinoyatlariga huquqiy nuqtayi nazar, ijtimoiy-iqtisodiy sabablar, tuzilmaviy omillar va korrupsiyaviy mexanizmlar nuqtayi nazaridan konseptual tahlil qilindi.

Калит сўзлар. talon-toroj qilish, o‘zlashtirish, rastrata, korrupsiya, jinoyat sabablari.

Аннотация. В данной статье представлен концептуальный анализ преступлений, связанных с хищением путем присвоения или растраты, с точки зрения правовой точки зрения, социально-экономических причин, структурных факторов и коррупционных механизмов.

Ключевые слова. хищение, присвоение, растрата, коррупция, причины преступлений.

Annotation. This article provides a conceptual analysis of crimes involving misappropriation or embezzlement through the perspectives of legal doctrine, socio-economic causes, structural factors, and corruption-related mechanisms.

Keywords. embezzlement, misappropriation, dissipation of property, corruption, causes of crime.

O‘zlashtirish yoki rastrata yo‘li bilan talon-toroj qilish – shaxsga ishonib topshirilgan yoki uning ixtiyorida bo‘lgan mol-mulkni noqonuniy ravishda o‘zlashtirish hamda sarflashni ifodalovchi talon-toroj qilish jinoyatidir. O‘zlashtirish yoki rastrata yo‘li bilan talon-toroj qilish jinoyatlari iqtisodiyotga katta zarar yetkazib, korrupsiyaviy hodisalar qatorida ko‘rib chiqiladi. Ta'kidlash kerakki, mamlakatimizda 2021–2023-yillarda ushbu turdagi jinoyatlar soni sezilarli darajada o‘sgani qayd etilgan.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Oʻzbekistonda mulk daxlsizligi Konstitutsiyada kafolatlangan boʻlsa-da, qonunga xilof ravishda talon-toroj qilishning oldini olishda murakkabliklarga duch kelinmoqda. Jinoyat kodeksining 167-moddasida belgilangan “oʻzlashtirish yoki rastrata yoʻli bilan talon-toroj qilish” jinoyati iqtisodiy jinoyatlar orasida ham alohida qayd etiladi. Davlat mulkini talon-toroj qilish yashirin korrupsiya shaklini tashkil etadi. Ma'lumot uchun, 2023-yilda iqtisodiy jinoyatlar soni 104 096 taga yetgan, ularning 12,4 foizi oʻzlashtirish yoki rastrata yoʻli bilan talon-toroj qilish jinoyatlariga toʻgʻri kelgan [1]. Bu jinoyat koʻpincha tadbirkorlik, davlat xaridlari hamda byudjet xarajatlarida sodir etiladi. Kelajakda huquqni muhofaza qiluvchi idoralar va tahlilchilar uchun jinoyatlar rivojini tushunishda mazkur sabablarni aniqlash muhimdir.

S. Niyozova oʻz ilmiy ishida oʻzgalar mulkini ishtirokchilikda talon-toroj qilganlik uchun jinoiy javobgarlik muammolariga e'tibor qaratgan [2]. Shuningdek, M. Kalandarov oʻzlashtirish yoki rastrata yoʻli bilan talon-toroj qilishning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlariga [3], R. Imamov esa zoʻrlik ishlatmasdan talon-toroj qilish jinoyatlari uchun jazo tayinlash masalalarini tahlil qilgan [4]. Umuman olganda, olimlar bu jinoyat turini huquqni suiiste'mol qilish va korrupsiyaning bir shakli sifatida talqin qilishadi, ya'ni mol-mulkni yashirin ravishda oʻzlashtirishning davomi sifatida koʻradilar. Aksariyat postsovet davlatlari olimlari ham siyosiy institutlar yetishmovchiligi, ijroni ta'minlash mexanizmlarining yoʻqligi, huquqiy nomuayyanliklar, jamoa nazoratining sustligi, maxsus nazariy ta'lim va ma'rifiy kamchiliklar, maoshning pastligi kabilarni mazkur turdagi jinoyatlarning vujudga kelishi asosiy sabablari sifatida oʻrganganlar [5].

Fikrimizcha, byurokratik tizim ichida joylashgan egalik vakolatlari korrupsiyaviy resurs yaratadi, bu kabi holatlarni oldini olish uchun qonunchilikda har bir tergov organining mas'uliyati aniq belgilangan boʻlishi muhim sanaladi.

Oʻzlashtirish yoki rastrata yoʻli bilan talon-toroj qilish jinoyatini keltirib chiqaradigan omillar qatoriga quyidagilarni qoʻshishimiz mumkin:

ma'muriy nazorat kamligi, shu jumladan, mansabdor shaxslar ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish mexanizmlarining yetishmasligi;

iqtisodiy sabablar – mansabdor shaxsda kam maosh, inflyatsiya, oʻzlashtirish jarayonlari ustuvorligiga sabab boʻlishi;

mulk ishonib topshirilgan shaxsga nisbatan nazorat yetishmasligi;

korrupsiyaviy omillarning mavjudligi;

axloqiy faktorlar ham muhim ahamiyat kasb etadi;

huquqni qoʻllashdagi kamchiliklar, tekshiruvning cheklanganligi;

davlat xaridlarini amalga oshirishda shaxslarga bogʻliq holatlarning mavjudligi.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Ta'kidlash joizki, jazo choralari mazkur turdagi jinoyatlarning oldini olishning yagona vositasi hisoblanmaydi. Jinoyatlarni barvaqt aniqlash mexanizmi esa profilaktikaning asosiy va samarali yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, ushbu jinoyatlarni erta bosqichda aniqlash, ularning sodir etilishiga imkon yaratayotgan tashkiliy-huquqiy va moliyaviy xavf omillarini oʻz vaqtida bartaraf etish, ichki nazorat va audit tizimlarini takomillashtirish, mansabdor shaxslar faoliyati ustidan samarali monitoringni yoʻlga qoʻyish, shuningdek, korrupsiyaviy xavflarni baholash mexanizmlarini joriy etish muhim profilaktik choralar sifatida namoyon boʻladi. Shu ma'noda, jinoyat sodir etilgandan keyin jazo qoʻllashdan koʻra, uning kelib chiqish sabablari va shart-sharoitlarini ilk bosqichda aniqlab, bartaraf etish profilaktikaning ustuvor yoʻnalishi hisoblanadi.

Oʻzlashtirish yoki rastrata yoʻli bilan talon-toroj qilish koʻp hollarda korrupsiyaning xususiy va latent shakllaridan biri sifatida namoyon boʻladi. Chunki mazkur jinoyatlar, odatda, ishonch bildirilgan mol-mulk yoki pul mablagʻlaridan manfaatdor shaxs tomonidan xizmat mavqei, vakolatlari yoki moddiy javobgarlik maqomidan foydalangan holda gʻayriqonuniy ravishda shaxsiy manfaat yoʻlida foydalanishi orqali sodir etiladi.

Jinoyatni sodir etish imkoniyatlarining mavjudligi, ichki va tashqi nazorat mexanizmlarining zaifligi, moliyaviy operatsiyalar ustidan shaffof monitoringning yetarli emasligi, shuningdek, raqamlashtirilgan va avtomatlashtirilgan hisob-kitob tizimlarining toʻliq joriy etilmaganligi bunday jinoyatlar uchun qulay sharoit yaratadi. Ayniqsa, elektron hisob-kitob, elektron inventarizatsiya, onlayn audit va real vaqt rejimidagi moliyaviy kuzatuv vositalari yetishmasligi mablagʻlarni yashirin ravishda oʻzlashtirish yoki maqsadsiz sarflash holatlarini oʻz vaqtida aniqlash imkoniyatini cheklaydi. Amaliyot shuni koʻrsatadiki, talon-toroj qilish bilan bogʻliq korrupsion sxemalar, ayniqsa, davlat xaridlari, byudjet mablagʻlarini taqsimlash, subsidiya va grantlardan foydalanish, qurilish va ta'mirlash ishlari, shuningdek, ijtimoiy sohaga ajratilgan mablagʻlarni sarflash jarayonlarida koʻproq uchraydi. Bunday holatlarda soxta hisobotlar tuzish, narxlarni sun'iy oshirish, affillangan korxonalar orqali mablagʻlarni chiqarib ketish, tovar va xizmatlarning hajmi yoki sifati yuzasidan qalbakilashtirish kabi korrupsion mexanizmlar jinoyatni sodir etishning asosiy usullari sifatida namoyon boʻladi. Shu bois, oʻzlashtirish va rastrata jinoyatlarini faqat mulkka qarshi jinoyat sifatida emas, balki korrupsiyaviy xavflarning amaliy ifodasi sifatida ham baholash, ularga qarshi kurashishda jinoyat-huquqiy, moliyaviy-nazorat va raqamli boshqaruv vositalarini kompleks ravishda qoʻllash zarur.

Shuningdek, postsovet hududlarida talon-toroj qilish kabi iqtisodiy jinoyatlar umumiy xususiyatlarga ega. Masalan, Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 160-moddasi ham “aybdorga ishonch asosida topshirilgan mulkni talon-toroj qilish” uchun javobgarlik belgilangan [6].

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Oʻzlashtirish yoki rastrata yoʻli bilan talon-toroj qilish jinoyatining asosiy sabablari tarkibiy-ijtimoiy va huquqiy omillar kompleksini oʻz ichiga oladi. Oʻzbekiston sharoitida bu sabablar qatoriga quyidagilar kiradi: past maosh va iqtisodiy motivatsiya, ishonch asosida topshirilgan mulkni nazoratsiz foydalanish imkoniyatlari, korrupsiyaga qarshi mexanizmlarning nomuntazamligi va ijtimoiy hayotda korrupsiyaga nisbatan tolerantlik. Shu sababli, talon-toroj qilgan shaxslar javobgarligini kuchaytirish bilan birga, qonun ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan keng koʻlamli chora-tadbirlar amalga oshirilishi kerak.

Fikrimizcha, davlat xaridlari va byudjet xarajatlariga raqamli monitoringni joriy etish, tender tizimini rivojlantirish, ichki audit va nazorat tizimlarini takomillashtirish, siyosiy va huquqiy mustaqil kuzatuv organlari faoliyatini oshirish, jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish, tajribali xodimlarni tayyorlash, aholida huquqiy ongni oshirish, tergov organlari va davlat tashkilotlari oʻrtasidagi hamkorlikni yanada takomillashtirish bu kabi jinoyatlarni oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Oʻzbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. XVII. Huquqbuzarlik. 442-bet. https://stat.uz

2. Ниёзова С.С. Ўзгалар мулкини иштирокчиликда талон-торож қилганлик учун жиноий жавобгарлик муаммолари. Ю.ф.н. илмий даражасини олиш учун диссертация. – Т., 2006. – 214 б.

3. Каландаров М.М. Ўзлаштириш ёки растрата йўли билан талон-торож қилиш: жиноят-ҳуқуқий ва криминологик жиҳатлар. Ю.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т., 2011. – 202 б.

4. Имамов Р. Зўрлик ишлатмасдан талон-торож қилиш жиноятлари учун жазо тайинлаш: – Т., 2011. – 180 б.

5. https://kpk-rf.ru/tpost/t2enp1jzx1-prichini-vozniknoveniya-korruptsii#

6. Уголовный кодекс Российской Федерации от 13.06.1996 № 63-ФЗ (ред. от 20.02.2026) УК РФ Статья 160.